O`ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA AMALDA BO`LGAN SOLIQLAR VA BOSHQA MAJBURIY TO`LOVLAR

- SOLIQ SIYOSATI - BU IQTISODIY SIYOSATNING AJRALMAS BIR QISMI BO‘LIB, DAVLATNING MUAYYAN DAVRDA ANIQ MAQSADLARGA QARATILGAN SOLIQ SOHASIDAGI FAOLIYATIDIR. U TARKIBAN SOLIQLARNI JORIY ETISH, SOLIQQA OID HUQUQIY BAZA YARATISH, JORIY ETILGAN SOLIQLAR VA SOLIQSIZ TO‘LOVLARNI AMALIYOTDA ISHLASH MEXANIZMINI SHAKLLANTIRISH VA SAMARADORLIGINI OSHIRISHGA QARATILGAN DAVLATNING TEGISHLI VAKOLATLI ORGANLARI TOMONIDAN KOMPLEKS TARZDA OLIB BORILADIGAN CHORA-TADBIRLAR YIG‘INDISIDIR. MAMLAKAT SOLIQ TIZIMI XUSUSIYATLARI, YO‘NALISHLARI, QANDAY SOLIQLARNING JORIY ETILISHI, ULAR O‘RTASIDAGI NISBATNI TA’MINLASH KABI MASALALARNI SOLIQ SIYOSATI BELGILAB BERADI.
- BOZOR IQTISODIYOTI SHAROITIDA DAVLATNING IQTISODIYOTNI TARTIBGA SOLISHDAGI ROLI KUCHAYIB, O‘Z OLDIGA QO‘YILGAN MAQSAD VA VAZIFALARNI AMALGA OSHIRISHDA SOLIQ SIYOSATI MUHIM VOSITA BO‘LIB XIZMAT QILADI. SOLIQ SIYOSATI AMALDA DAVLAT BOSHQARUVINING BOSHQA UNSURLARI: PUL-KREDIT SIYOSATI, BAHO SIYOSATI KABILAR BILAN BIRGALIKDA MAMLAKATNING BARCHA IJTIMOIY-IQTISODIY SOHALARIGA FAOL TA’SIR ETADI.

- AMALDAGI SOLIQ KODEKSIGA KO‘RA SOLIQ TO‘LOVCHILAR QUYIDAGI HUQUQLARGA EGADIRLAR: DAVLAT SOLIQ XIZMATI ORGANLARI VA BOSHQA VAKOLATLI ORGANLARDAN AMALDAGI SOLIQLAR, BOSHQA MAJBURIY TO‘LOVLAR, SOLIQ TO‘G‘RISIDAGI QONUN HUJJATLARIDAGI O‘ZGARISHLAR HAQIDA AXBOROT OLISH. SOLIQ TO‘LOVCHI YURIDIK VA JISMONIY SHAXSLAR O‘ZLARI RO‘YXATDAN O‘TGAN QUYI DAVLAT SOLIQ XIZMATI ORGANLARIGA BORIB, BUDJET OLDIDAGI O‘Z MAJBURIYATLARINI XATOLARSIZ BAJARISH MAQSADIDA TEGISHLI AXBOROTLARNI YOKI MASLAHATLARNI BEPUL OLISH IMKONIYATLARIGA EGA. O‘Z SOLIQ MAJBURIYATLARINI BAJARISH YUZASIDAN DAVLAT SOLIQ XIZMATI ORGANLARI HAMDA BOSHQA VAKOLATLI ORGANLARDAGI MAVJUD MA’LUMOTLARNI OLISH. BUNGA MUVOFIQ SOLIQ TO‘LOVCHILAR QUYI SOLIQ IDORALARIDAN XO‘JALIK VA MOLIYAVIY FAOLIYATLARIGA TEGISHLI BO‘LGAN SOLIQ SOLISH MASALALARI BO‘YICHA MASLAHAT OLISH VA MA’LUMOTLAR BILAN TANISHISH IMKONIYATIGA EGADIRLAR.

- O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOLIQLAR TIZIMI UMUMDAVLAT SOLIQLARI VA BOSHQA MAJBURIY TO‘LOVLAR HAMDA MAHALLIY SOLIQLAR VA BOSHQA MAJBURIY TO‘LOVLAR TIZIMIDAN IBORAT.
- **SOLIQ KODEKSINING 23-MODDASIGA KO‘RA O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI HUDUDIDA UMUMDAVLAT SOLIQLARI VA BOSHQA MAJBURIY TO‘LOVLAR HAMDA MAHALLIY SOLIQLAR VA BOSHQA MAJBURIY TO‘LOVLAR AMAL QILADI**
- 6 **. SOLIQLARGA QUYIDAGILAR KIRADI**:
- 1) YURIDIK SHAXSLARDAN OLINADIGAN FOYDA SOLIG‘I;
- 2) JISMONIY SHAXSLARDAN OLINADIGAN DAROMAD SOLIG‘I;
- 3) QO‘SHILGAN QIYMAT SOLIG‘I;
- 4) AKSIZ SOLIG‘I;
- 5) YER QA’RIDAN FOYDALANUVCHILAR UCHUN SOLIQLAR VA MAXSUS TO‘LOVLAR;
- 6) SUV RESURSLARIDAN FOYDALANGANLIK UCHUN SOLIQ;
- 7) MOL-MULK SOLIG‘I;
- 8) YER SOLIG‘I;
- 9) OBODONLASHTIRISH VA IJTIMOIY INFRATUZILMANI RIVOJLANTIRISH SOLIG‘I;
- 10) TRANSPORT VOSITALARIGA BENZIN, DIZEL YOQILG‘ISI VA GAZ ISHLATGANLIK UCHUN OLINADIGAN SOLIQ.

- **BOSHQA MAJBURIY TO‘LOVLARGA QUYIDAGILAR KIRADI:**
- 1) IJTIMOIY JAMG‘ARMALARGA MAJBURIY TO‘LOVLAR:
- - YAGONA IJTIMOIY TO‘LOV;
- - FUQAROLARNING BUDJETDAN TASHQARI PENSIYA JAMG‘ARMASIGA SUG‘URTA BADALLARI;
- - BUDJETDAN TASHQARI PENSIYA JAMG‘ARMASIGA MAJBURIY AJRATMALAR;
- 2) RESPUBLIKA YO‘L JAMG‘ARMASIGA MAJBURIY TO‘LOVLAR:
- - RESPUBLIKA YO‘L JAMG‘ARMASIGA MAJBURIY AJRATMALAR;
- - RESPUBLIKA YO‘L JAMG‘ARMASIGA YIG‘IMLAR
- 3) DAVLAT BOJI;
- 4) BOJXONA TO‘LOVLARI;
- 5) AYRIM TURDAGI TOVARLAR BILAN CHAKANA SAVDO QILISH VA AYRIM TURDAGI XIZMATLARNI KO‘RSATISH HUQUQI UCHUN YIG‘IM.
- BUDJETDAN TASHQARI UMUMTA’LIM MAKTABLARI, KASB-HUNAR KOLLEJLARI, AKADEMIK LITSEYLAR VA TIBBIYOT MUASSASALARINI REKONSTRUKSIYA QILISH, MUKAMMAL TA’MIRLASH VA JIHOZLASH JAMG‘ARMASIGA MAJBURIY AJRATMALAR

- **SOLIQ SOLISHNING SODDALASHTIRILGAN TARTIBIDA TO‘LANADIGAN QUYIDAGI SOLIQLAR QO‘LLANILISHI MUMKIN:**
- 1) YAGONA SOLIQ TO‘LOVI;
- 2) YAGONA YER SOLIG‘I;
- 3) TADBIRKORLIK FAOLIYATINING AYRIM TURLARI BO‘YICHA QAT’IY BELGILANGAN SOLIQ. O‘ZBEKISTON SOLIQ TIZIMIDA SOLIQLARNI OB’YEKTI, IQTISODIY MOHIYATI BUDJETGA TUSHISHI VA TO‘LOVCHILARI NUQTAI-NAZARI BO‘YICHA GURUHLARGA AJRATIB O‘RGANISH MUMKIN.
- **SOLIQLAR SOLIQ SOLISH OB’YEKTIGA QARAB UCH GURUHGA BO‘LINADI:**
- 1) OBOROTDAN OLINADIGAN SOLIQLAR;
- 2) DAROMADDAN OLINADIGAN SOLIQLAR;
- 3) MOL-MULKDAN QIYMATIDAN OLINADIGAN SOLIQLAR.

- **QO‘SHILGAN QIYMAT SOLIG‘I** — UMUMDAVLAT SOLIQ TURI; ISHLAB CHIQARISH VA MUO-MALA JARAYONLARINING BARCHA BOSQICHLARIDA YARATILGAN QO‘SHILGAN QIYMATNING BIR QISMINI DAVLAT BYUDJETIGA OLISH SHAKLI. TOVAR VA XIZMATLARDAN OLINADIGAN BILVOSITA (EGRI) SOLIQLAR TARKIBIGA KIRADI. BIRINCHI MARTA FRANSUZ IQTISODCHISI M.LORE TOMONIDAN 1954 YILDA TAKLIF QILINGAN, 1960 YILDA KOD-DIVUAR RESPUBLIKASIDA SOLIQ TIZIMIGA KIRITILGAN. O‘ZBEKISTONDA 1992 YILDAN BOSHLAB QO‘LLANILADI. TOVARLAR (ISHLAR, XIZMATLAR)NI SOTISH VA IMPORT QILISH AYLANMASI QO‘SHILGAN QIYMAT SOLIG‘IS. SOLINADIGAN OB’YEKT HISOBLANADI. SOTISH BO‘YICHA QO‘SHILGAN QIYMAT SOLIG‘IS.GA TORTILADIGAN AYLANMA SOTILADIGAN TOVARLAR (ISHLAR, XIZMATLAR) QIYMATI ASOSIDA, NARXLAR VA TARIFLARNI, AKSIZ SOLIG‘INI HISOBGA OLGAN HOLDA BELGILANADI.
- QO‘SHILGAN QIYMAT SOLIG‘INI HISOBLAB CHIQARISH VA TO‘LASHNING SODDALASHTIRILGAN TARTIBIGA O‘TGAN SOLIQ TO‘LOVCHILAR UCHUN QO‘SHILGAN QIYMAT SOLIG‘INING FARQLANGAN STAVKALARI QUYIDAGI MIQDORLARDA BELGILANADI:
- IQTISODIYOTNING BARCHA TARMOQLARIDAGI YURIDIK SHAXSLAR — 7%;
- QURILISH TASHKILOTLARI — 8%;
- CHAKANA, ULGURJI, SHUNINGDEK ULGURJI-CHAKANA SAVDONI AMALGA OSHIRADIGAN SAVDO KORXONALARI — 6%;
- UMUMIY OVQATLANISH, MEHMONXONA XO’JALIGI KORXONALARI — 10%;
- KASBIY XIZMATLAR KO’RSATADIGAN YURIDIK SHAXLAR (AUDITORLIK, SOLIQ MASLAHATI, KONSALTING, BROKERLIK XIZMATLARI VA BOSHQALAR) — 15%;
- QISHLOQ XO’JALIGI MAHSULOTLARINI REALIZATSIYA QILADIGAN YURIDIK SHAXSLAR (O'ZINING ISHLAB CHIQARISH MAHSULOTLARI BUNDAN MUSTASNO) — 4%.

- **AKSIZ** (FRANS. ACCISE – QIRQIB OLMOQ) – KENG ISTE’MOL TOVARLARI, ENG MUHIM XOM ASHYOLARGA, SHUNINGDEK XIZMATLAR UCHUN DAVLAT TOMONIDAN SOLINADIGAN QO‘SHIMCHA SOLIQ TURI. MUAYYAN TOVAR (MUHIM ISTE’MOL TOVARLARI: QAND, GU-GURT, TUZ, TAMAKI, SPIRTLI ICHIMLIKLAR, SHUNINGDEK AVTOMOBILLAR, MUZLATKICHLAR, MO‘YNA MAHSULOTLARI BILLUR VA HOKAZO)LAR NARXIGA, KO‘RSATILGAN XIZMAT (KOMMU-NAL, TRANSPORT VA BOSHQALAR) HAQIGA QO‘SHIMCHA USTAMA SOLIQ SIFATIDA QO‘SHILADI VA 286UNI TO‘LOVCHILAR BEVOSITA HARIDORLAR HISOBLANADI. A. NARX TARKIBIDA MUAYYAN QIYMATDA YOKI NARX MIQDORIDAN MA’LUM FOIZ HISOBIDA KO‘RINISHLARIDA BO‘LADI. A. DAVLAT BYUDJETIDA DAROMADLARNING MUHIM QISMINI TASHKIL ETADI. A. QAD. RIMDA KELIB CHIQKAN. HOZIRGI DUNYO MAMLAKATLARIDA KENG RIVOJLANGAN. O‘ZBEKISTONDA 1996 YIL 1 OKTABRDAN RESPUBLIKANING O‘ZIDA ISHLAB CHIKARILGAN VA UNING HUDUDIGA CHETDAN KELTIRILGAN TAMAKI MAHSULOTLARI HAMDA SPIRTLI ICHIMLIKLARNI SOTISHDA MAXSUS A. MARKALARI JORIY ETILGAN.
- 2019 YIL 15 AVGUSTDAN SIQILGAN GAZNI YAKUNIY ISTE’MOLCHIGA REALIZATSIYA QILISHDA AKSIZ SOLIG‘I STAVKASI 20%GA;
- 2019 YIL 1 OKTYABRDAN ALKOGOLLI MAHSULOTNING AKSIZ SOLIG‘I STAVKASI O‘RTA HISOBDA 10%GA, TAMAKI MAHSULOTINING AKSIZ SOLIG‘I STAVKASI 20%GA OSHIRILDI

- **YER SOLIG‘I** — YERDAN FOYDALANGANLIK UCHUN DAVLATGA MAJBURIY TO‘LANADIGAN SOLIQ TURI. IQTISODIY MOHIYATI BO‘YICHA YER RENTASINI IFODA ETADI. YERGA MULKCHILIKNING PAYDO BO‘LISHI BILAN YUZAGA KELGAN. JAHONDAGI DEYARLI BARCHA MAMLAKATLARDA DAVLAT MULKI HISOBLANADIGAN YERDAN FOYDALANGANLIK VA FUQAROLAR MULK YERLARI UCHUN DAVLAT BYUDJETIGA TO‘LANADI.
- YAQIN VA O‘RTA SHARQ MAMLAKATLARIDA, MIL. 3-ASRDAN SOSONIYLAR DAVLATIDA JORIY QILINGAN. KEYINGI AYERLARDA ZAKOT, XIROJ, O‘LPON, TANOB, USHR VA B. NOMLAR BILAN YURITILGAN. MUSULMON MAMLAKATLARIDA YER MAYDONI BIRLIGIDAN PULDA YOKI YER SIFATI HAMDA SUV BILAN TA’MINLANISH DARAJASIGA QARAB HOSILNING 1/4, 1/3, 1/2 QISMI HAJMIDA UNDIRILGAN. O‘RTA OSIYODA 8-ASR BOSHIDA ARABLAR TOMONIDAN JORIY QILINGAN.
- SHUNGA MUVOFIQ, MOL-MULKNING KADASTR QIYMATIGA NISBATAN QO‘LLANILADIGAN SOLIQ STAVKALARI 2018 YILDAN BOSHLAB QUYIDAGICHA BELGILANDI:

  TURAR JOYLAR, KVARTIRALAR, DALA HOVLI QURILMALARI (UMUMIY MAYDONI 200 KVADRAT METRDAN ORTIG‘I BUNDAN MUSTASNO), BOSHQA IMORATLAR, XONALAR VA INSHOOTLAR UCHUN ENG KAM OYLIK ISH HAQQINING 0,2 FOIZ MIQDORIDA;

  SHAHARLARDA JOYLASHGAN, UMUMIY MAYDONI 200 DAN 500 KVADRAT METRGACHA BO‘LGAN TURAR JOY VA KVARTIRALARGA 0,25 FOIZ MIQDORIDA;

  MAYDONI 500 KVADRAT METRDAN OSHIQ BO‘LGAN TURAR JOY VA KVARTIRALAR UCHUN 0,35 FOIZ MIQDORIDA;

  BOSHQA AHOLI PUNKTLARIDA JOYLASHGAN UMUMIY MAYDONI 200 KVADRAT METRDAN OSHIQ BO‘LGAN TURAR JOY VA KVARTIRALAR, DALA HOVLI QURILMALARI UCHUN 0,25 FOIZ MIQDORIDA BELGILANDI.

- **OBOROTDAN OLINADIGAN SOLIQLAR**GA QO‘SHILGAN QIYMAT SOLIG‘I, AKSIZ SOLIG‘I, BOJXONA BOJI VA YER QA’RIDAN FOYDALANGANLIK UCHUN OLINADIGAN SOLIQLAR KIRADI. LEKIN OBOROT (AYLANMA) TUSHUNCHASI BIZNING QONUNCHILIGIMIZ BO‘YICHA ILGARIGIDEK MAHSULOT REALIZATSIYASI OBOROTIDAN EMAS, BALKI YUKLAB YUBORILGAN MAHSULOTLAR QIYMATI BILAN O‘LCHANADI. YALPI TUSHUMDAN OLINADIGAN YAGONA SOLIQ TO‘LOVI HAM OBOROTDAN OLINADIGAN SOLIQLARGA KIRADI.
- **DAROMADDAN OLINADIGAN SOLIQLAR**GA YURIDIK SHAXSLARNING FOYDASIGA ULGURJI SAVDO KORXONALARINING YALPI DAROMADIDAN OLINADIGAN SOLIQ KIRADI. BU GURUH SOLIQLARGA OBODONLASHTIRISH VA IJTIMOIY INFRATUZILMANI RIVOJLANTIRISH SOLIG‘I HAM KIRADI.
- **MOL-MULK QIYMATIDAN OLINADIGAN SOLIQLAR**GA YURIDIK VA JISMONIY SHAXSLARNING MOL-MULK SOLIG‘I, QISHLOQ XO‘JALIK TOVAR ISHLAB CHIQARUVCHILARINING YAGONA YER SOLIG‘I HAMDA YURIDIK VA JISMONIY SHAXSLARNING YER SOLIQLARINI KIRITISH MUMKIN.

- IQTISODIY MOHIYATIGA QARAB SOLIQLAR **EGRI (BILVOSITA), TO‘G‘RI (BEVOSITA)** SOLIQLARGA BO‘LINADI.
- TO‘G‘RI SOLIQLARNI TO‘G‘RIDAN-TO‘G‘RI SOLIQ TO‘LOVCHILARNING O‘ZI TO‘LAYDI, YA’NI SOLIQNING HUQUQIY TO‘LOVCHISI HAM, HAQIQIY TO‘LOVCHISI HAM BITTA SHAXS BO‘LADI. BU SOLIQLAR TARKIBIGA BARCHA DAROMADDAN TO‘LANADIGAN SOLIQLAR HAMDA MOL-MULK VA RESURS SOLIQLARI KIRADI. RESURS SOLIGLARI TARKIBIGA YER SOLIG‘I, YER QA’RIDAN FOYDALANGANLIK UCHUN VA SUV RESURSLARIDAN FOYDALANGANLIK UCHUN SOLIQLAR KIRADI. TO‘G‘RI SOLIQLARDA TO‘G‘RIDAN-TO‘G‘RI DAROMADDAN SOLIQ TO‘LANGANLIGI UCHUN SOLIQLAR STAVKASINING KAMAYTIRILISHI KORXONALAR DAROMADINING KO‘P QISMINI ULARGA QOLDIRIB, INVESTITSIYA FAOLIYATINI KENGAYTIRISH IMKONINI YARATIB, BOZOR IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRADI. BU SOLIQLARNING STAVKALARI OSHIRILSA, KORXONALARNING MOLIYAVIY IMKONIYATLARI KAMAYA BORADI. DEMAK, BU GURUH TARKIBIGA KIRUVCHI SOLIQLARNING STAVKALARI IQTISODIY RIVOJLANISH BILAN BEVOSITA BOG‘LIQDIR

- EGRI SOLIQLARNING HUQUQIY TO‘LOVCHILARI MAHSULOT (ISH, XIZMAT)NI YUKLAB YUBORUVCHILAR HISOBLANADI. LEKIN, SOLIQ OG‘IRLIGI HAQIQATAN HAM TOVAR (ISH, XIZMAT)NI ISTE’MOL QILUVCHILAR, YA’NI BEVOSITA ISTE’MOLCHILAR ZIMMASIGA TUSHADI. BU SOLIQLAR TOVAR (ISH, XIZMAT) QIYMATI USTIGA QO‘SHIMCHA RAVISHDA QO‘YILADI. EGRI SOLIQLARNING IJOBIY TOMONI SHUNDAKI, ULAR RESPUBLIKADA ISHLAB CHIQARILGAN TOVARLAR RESPUBLIKADAN TASHQARIGA CHIQIB KETISHINI CHEGARALAYDI, MAMLAKAT ICHIDA TOVARLARNING SEROB BO‘LISHIGA YORDAM BERADI HAMDA INFLYATSIYA DARAJASINI (MUOMALADAGI ORTIQCHA PUL MASSASINI) BIRMUNCHA JILOVLAB TURADI.
- EGRI SOLIQLAR TARKIBIGA QO‘SHILGAN QIYMAT SOLIG‘I, AKSIZ SOLIG‘I, BOJXONA BOJI, TRANSPORT VOSITALARIGA BENZIN, DIZEL YOQILG‘ISI VA GAZ ISHLATGANLIK UCHUN OLINADIGAN SOLIQLAR KIRADI. CHUNKI QO‘SHILGAN QIYMAT SOLIG‘I VA AKSIZ SOLIG‘I IQTISODIY KON’YUKTURANING O‘ZGARISHLARIGA BEVOSITA BOG‘LIQ BO‘LMAGAN BARQAROR DAROMAD MANBALARI HISOBLANADI VA EGRI SOLIQLAR BO‘YICHA TUSHUMLARNING ASOSIY QISMINI TASHKIL ETADI.


- **BUDJETGA TUSHISHIGA QARAB SOLIQLAR UMUMDAVLAT VA MAHALLIY SOLIQLARGA BO‘LINADI.**
- ***UMUMDAVLAT SOLIQLARI VA BOSHQA MAJBURIY TO‘LOVLAR TARKIBIGA QUYIDAGILAR KIRADI***:
- 1) YURIDIK SHAXSLARDAN OLINADIGAN FOYDA SOLIG‘I;
- 2) JISMONIY SHAXSLARDAN OLIMADIGAN DAROMAD SOLIG‘I;
- 3) QO‘SHILGAN QIYMAT SOLIG‘I;
- 4) AKSIZ SOLIG‘I;
- 5) YER QA’RIDAN FOYDALANUVCHILAR UCHUN SOLIQLAR VA MAXSUS TO‘LOVLAR;
- 6) SUV RESURSLARIDAN FOYDALANGANLIK UCHUN SOLIQ
- 7) IJTIMOIY JAMG‘ARMALARGA MAJBURIY TO‘LOVLAR: - YAGONA IJTIMOIY TO‘LOV; - FUQAROLARNING BUDJETDAN TASHQARI PENSIYA JAMG‘ARMASIGA SUG‘URTA BADALLARI; - BUDJETDAN TASHQARI PENSIYA JAMG‘ARMASIGA MAJBURIY AJRATMALAR.
- 8) RESPUBLIKA YO‘L JAMG‘ARMASIGA MAJBURIY TO‘LOVLAR: - RESPUBLIKA YO‘L JAMG‘ARMASIGA MAJBURIY AJRATMALAR; - RESPUBLIKA YO‘L JAMG‘ARMASIGA YIG‘IMLAR.
- 9) BUDJETDAN TASHQARI UMUMTA’LIM MAKTABLARI, KASB-HUNAR KOLLEJLARI, AKADEMIK LITSEYLAR VA TIBBIYOT MUASSASALARINI REKONSTRUKSIYA QILISH, MUKAMMAL TA’MIRLASH VA JIHOZLASH JAMG‘ARMASIGA MAJBURIY AJRATMALAR;
- 10) DAVLAT BOJI.

- **BOJXONA ORGANLARI BOJXONA ISHINI AMALGA OSHIRISHDA BELGILANGAN TARTIBDA BOJXONA TO‘LOVLARINI UNDIRADI.**
- BOJXONA TO‘LOVLARINING QUYIDAGI TURLARI MAVJUD:
- - BOJXONA BOJI;
- - IMPORT QILINAYOTGAN TOVARLAR UCHUN UNDIRILAGAN QO‘SHILGAN QIYMAT SOLIG‘I;
- - IMPORT QILINAYOTGAN TOVARLAR UCHUN UNDIRILADIGAN AKSIZ SOLIG‘I;
- - BOJXONA YIG‘IMLARI.
- **SOLIQ SOLISHNING SODDALASHTIRILGAN TARTIBIDA TO‘LANADIGAN UMUMDAVLAT SOLIQLARI:**
- 1) YAGONA SOLIQ TO‘LOVI;
- 2) TADBIRKORLIK FAOLIYATINING AYRIM TURLARI BO‘YICHA QAT’IY BELGILANGAN SOLIQ.

- **MAHALLIY SOLIQLAR VA BOSHQA MAJBURIY TO‘LOVLARGA QUYIDAGILAR KIRADI:**
- 1) MOL-MULK SOLIG‘I;
- 2) YER SOLIG‘I;
- 3) OBODONLASHTIRISH VA IJTIMOIY INFRATUZILMANI RIVOJLANTIRISH SOLIG‘I;
- 4) TRANSPORT VOSITALARIGA BENZIN, DIZEL YOQILG‘ISI VA GAZ ISHLATGANLIK UCHUN OLINADIGAN SOLIQ;
- 5) AYRIM TURDAGI TOVARLAR BILAN CHAKANA SAVDO QILISH VA AYRIM TURDAGI XIZMATLARNI KO‘RSATISH HUQUQI UCHUN YIG‘IM;
- 6) YAGONA YER SOLIG‘I (SODDALASHTIRILGAN TARTIBDAGI SOLIQ).
- UMUMDAVLAT SOLIQLARI ASOSAN RESPUBLIKA BUDJETI DAROMADLARINI SHAKLLANTIRISHGA QARATILGAN BO‘LSA, MAHALLIY SOLIQLAR VA YIG‘IMLAR MAHALLIY BUDJETLAR DAROMADLARINI SHAKLLANTIRADI

- **SOLIQ KODEKSIGA KO‘RA SOLIQ TO‘LOVCHILAR QUYIDAGI MAJBURIYATLARGA EGADIRLAR**:
- O‘Z SOLIQ MAJBURIYATLARINI O‘Z VAQTIDA VA TO‘LIQ HAJMDA BAJARISHI. SOLIQ TO‘LOVCHILAR HAR BIR SOLIQ TURI BO‘YICHA HISOB-KITOBLARINI BELGILANGAN MUDDATLARDAN KECHIKTIRMASDAN SOLIQ IDORALARIGA TAQDIM ETADI. AKS HOLDA KORXONAGA VA KORXONANING MANSABDOR SHAXSLARIGA NISBATAN MOLIYAVIY VA MA’MURIY JAZO CHORALARI QO‘LLANILADI. QONUN HUJJATLARIGA MUVOFIQ BUXGALTERIYA HISOBINI YURITISHI, MOLIYAVIY VA SOLIQ HISOBOTINI TUZISHI. KORXONA O‘ZINING ISHLAB CHIQARISH VA MOLIYAVIY FAOLIYATINI YURITISHDA QONUNCHILIK BILAN BELGILAB BERILGAN HISOB VA BUXGALTERIYA HISOBI HUJJATLARINI YURITISHGA MAJBURDIR. KORXONADA BUXGALTERIYA HISOBINI YURITISH TEGISHLI QONUNCHILIK NORMALARI ASOSIDA AMALGA OSHIRILADI. DAVLAT SOLIQ XIZMATI ORGANLARIGA VA BOSHQA VAKOLATLI ORGANLARGA IMTIYOZLAR OLISH HUQUQINI TASDIQLOVCHI HUJJATLARNI TAQDIM ETISHI

- O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT BYUDJETI DAROMADLARI 74,5 TRILLION SO‘M, XARAJATLARI ESA 78,5 TRILLION SO‘MNI TASHKIL ETISHI, MAHALLIY BYUDJETLAR IXTIYORIDA 5,5 TRILLION SO‘M YOKI O‘TGAN YILGA NISBATAN 6 BAROBAR KO‘P MABLAG‘ QOLISHI KUTILAYOTGANI QAYD ETILDI.
- BYUDJET XARAJATLARI 2018-YILGA NISBATAN 60 FOIZ YOKI 29 TRILLION SO‘MGA OSHGAN. USHBU MABLAG‘LARNING 5,6 TRILLION SO‘MI “OBOD QISHLOQ”, “OBOD MAHALLA”, “YOSHLAR – KELAJAGIMIZ” DASTURLARI VA ARZON UY-JOYLAR QURILISHINI MOLIYALASHTIRISHGA YO‘NALTIRILDI. YOSH TADBIRKORLARGA IMTIYOZLI KREDITLAR BERISH, AHOLINI ISH BILAN TA’MINLASH UCHUN “MIKROKREDITBANK” AKSIYADORLIK TIJORAT BANKIGA 700 MILLIARD SO‘M VA XALQ BANKIGA 1 TRILLION SO‘MDAN ZIYOD MABLAG‘, MAMLAKATIMIZ MUDOFAA QOBILIYATINI OSHIRISHGA 4,5 TRILLION SO‘M AJRATILDI.
- ASOSIYSI, BYUDJET SOHASI XODIMLARI ISH HAQI, PENSIYA VA NAFAQALARINI INFLYATSIYA KO‘RSATKICHIDAN YUQORI OSHIRISH BILAN BIRGA TARBIYACHILAR, O‘QITUVCHILAR, ILMIY XODIMLAR, PROFESCOR-O‘QITUVCHILAR, MADANIYAT XODIMLARINING ISH HAQI 30 FOIZDAN 100 FOIZGACHA OSHIRILDI.


Chart Title
79
78
77
76
75
74
73
72
Категория 1
Категория 2
Daromad
Harajat
Столбец1

- E`TIBORINGIZ UCHUN RAHMAT